SURXONDARYO VILOYATI QUMQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2026-yil 7-sentabr | 443-8-114-Q/26 | Qumqo‘rg‘on tuman hokimligi

Qumqo‘rg‘on tumanining 2026-yilgi mahalliy budjet parametrlariga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

Tuman mahalliy budjeti mablag‘larini maqsadli sarflanishini tashkil etish, xarajatlarni sohalar bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash orqali mablag‘larning iqtisod qilinishiga erishish, kreditor qarzdorliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 28 va 148-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2026-yil 14-avgustdagi tuman mahalliy budjetining xarajatlari yoyilmasiga o‘zgartirish kiritishto‘g‘risidagi 155-sonli xati hamda tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2026-yil 14-avgustdagi 02-03/28-sonli xati inobatga olinsin.

2. Tuman mahalliy budjetdan mablag‘ oluvchi budjet mablag‘larini taqsimlaovchilarining 2026-yilgi xarajatlari yoyilmasiga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Kiritilgan o‘zgartirishlar tuman mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchi budjet muassasalarining 2026-yil tasdiqlangan xarajatlar yoyilmasiga nisbatan 10 foizdan kam miqdorida ekanligi e’tirof etilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O.Abdimurodov) ga tuman mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchi budjet tashkilotlarining 2026-yil xarajatlar yoyilmasiga ilovaga muvofiq o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Z.Eshqobilov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Xoliqov F.O**

Qumqo‘rg‘on tumani hokimining
2026-yil 7-sentabrdagi
443-8-114-Q/26-son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag‘larini taqsimlovchilariga ajratilgan mablag‘larning cheklangan miqdorlariga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

MA’LUMOT

(ming.so‘mda)

T/R	Mablag‘ taqsimlovchilar nomi	Kiritilgan o‘zgartish		2026-yil uchun budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan budjet mablag‘larining cheklangan miqdorlari	Kiritilgan o‘zgartirishlar tuman tasdiqlangan xarajatlar yoyilmasiga nisbatan foiz hisobida
		Kamayish	Ko‘payish		
1	Irrigatsiya bo‘limi	-64 000,0		1 408 352,0	4,54%
2	Obodonlashtirish boshqarmasi		64 000,0	16 310 136,0	0,39%
Jami		**-64 000,0**	**64 000,0**	**x**	**x**